

**SURXONDARYO VILOYATI QUMQO`RG`ON TUMANIDAGI GIDRONIMLARNING
ONOMASIOLOGIK VA ETIMOLOGIK TADQIQI**

To`rayeva Sayyora Baxtiyorovna
*Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi
huzuridagi Afg`oniston
fuqarolarini o`qitish ta`lim markazida
katta o`qituvchi*

Anotatsiya: *Surxondaryo viloyati Qumqo`rg`on tumani hududida ham Janubiy Surxon suv ombori, Surxon daryosi borligi va ko`plab kanallar, soy va buloqlarning mavjudligi uchun gidronimlarga boy hudud hisoblanadi. Ushbu maqolada tumandagi gidronimlar onomasiologik va etimologik tahlil qilngan*

Kalit so`z: *gidronim, onomasiologik, etimologik, toponimiya, leksema, fe'l o`zagi, gidronimika, toponimika, toponim*

Barcha suv obyektlarining nomlari gidronimlar deyiladi. (yunoncha gidro –suv). Okean, dengiz, ko'l, soy, jilg'a, quduqning har biri suv obyektidir. Suvsiz hayot yo'q. Yer sharida dastlabki hayot ham suvda, okeanda paydo bo'lgan degan fikr bor. Toponimikaning bo'limi – gidronimika suv obyektlarining nomlarini, ularning kelib chiqishini, atalish qonuniyatlarini o'rganadi. Toponimistlar gidronimlarni eng qadimiy toponimlar deb baholashadi. Buning isboti sifatida Amudaryo va Sirdaryoning qadimiy nomlari har qanday osori atiqqa yodgorliklarining Yoshi bilan bellasha olishini ta'kidlashimiz mumkin. O'rta Osiyodagi eng yirik daryo – Amudaryo qadimgi yunon tarixchisi Gerodot (Miloddan oldingi V asr) asarlarida Araks deb, keyinroq (Milodning 1 asrida) o'tgan yunon tarixchilari asarlarida Oks deb atalgan. Avesto va boshqa tarixiy manbalarda Amudaryoning Arang, Raxa, Ranxa, Aranxa degan qadimiy nomlari uchraydi. Xuddi shunday respublikamiz hududida ko'plab daryo va kanallar nomlariga duch kelamiz. Amudaryoning hozirgi nomi O'rta asrlarda mavjud boigan Omul (Omuy, Omuyya) shahri (hozirgi Chojo'y) nomidan olingan deyishadi. Shahar daryodan nom olgan bo'lishi ham mumkin. Akademik V.V. Bartold «Bu so'z ariylardan ham oldingi amard xalqi nomidan kelib chiqqan boisa kerak» degan farazni oldinga suradi. Mahmud Koshg'ariyda har qanday sokin, barqaror, turg'un narsaning *amul* deyilishini aytib o'tish mumkin («Devonu lug'at-it turk», I tom, 104-bet). Tarixiy manbalarda Amudaryoning *Termiz daryosi, Kalif daryosi, Arang, Raxa, Aranga, Urganch daryosi, Xorazm daryosi* kabi nomlari uchraydi. Surxondaryo viloyatida hududida Amudaryo, Surxondaryo, Sheroboddaryo, To'polondaryo kabi suv havzalari, kanallar, quduqlar, buloq va soylarga duch kelamiz.

Qumqo`rg`on tumani hududida ham Janubiy Surxon suv ombori, Surxon daryosi borligi va ko'plab kanallar, soy va buloqlarning mavjudligi uchun gidronimlarga boy hudud

hisoblanadi. Tuman hududida yuzdan oshiq gidronimlarga duch kelamiz. **Surxondaryo** – Suvi Amudaryoga quyiladigan, Qumqo`rg`on tumanidan oqib o`tdigan daryo. Viloyat nomi ham daryo nomidan kelib chiqqan. O`rta asrlarda Chag`onrud nomi bilan atalgan. Daryo Hisor tog`laridan boshlanib, unga ko`pgina daryo va soylar kelib qo`shiladi (Qoratog`daryo, Regardaryo, to`palang daryo, Sangardakdaryo, Dashnavot daryo kabilar). Surxondaryo gidronim so`z bo`lib, surxon+daryo qismlaridan tashkil topgan. Surxon-Qizil suv Yoki qizil daryo ma`nolarini beradi. Surxondaryo nomining etimologiyasi ham hamon jumboqligicha qolayotir. Tojikcha «Qizil suv» ma`nosida bo`lsa, *sunkob* deyilishi kerak edi (daryoning bosh qismi — Denov shahrigacha *Qizilsuv* ataladi). *Sunk* yoki *surxi* degan turkman urug`i ham bor. O`rta asrlarda, Amir Temur tarixida ham Chag`onrud (oqdaryo) deb atalgan. V.V. Bartold mo`g`ul tilida chag`on «oq» ekanini aytgan (ro`d-daryo). (61-bet. S. Qorayev, Toponimika) Tumandagi eng katta gidronimlardan biri Janubiy Surxon suv omboridir. **Janubiy Surxon suv ombori** – Surxondaryoning janubiy qismiga qurilgan to`g`on bo`lib, Qumqo`rg`on tumanida joylashgan. To`g`on dengiz sathidan 415 metr balandlikda Zarkamar va Xo`jamulki to`qayi o`rniga qurilgan. Asosiy vazifasi Surxondaryo viloyatining janubiy qismini suv bilan ta`minlaydi. Suv ombor hatto yillik harorat rejimiga ta`sir qilib, yozgi jaziramani va qishki sovuqni yumshatib minglab gektar yerlarni o`zlashtirishga sharoit yaratadi. 1958-1965 yillarda qurib bitkazilgan. To`g`onning qurilishida 29 ta millat vakili qatnashgan. Surxondaryoning janubiy qismiga qurilgani sababli Janubiy surxon suv ombori nomini olgan. Qumqo`rg`on tumani hududida daryo va suv omboridan tashqari o`ttizdan oshiq kanal, yigirmadan oshiq soy, chashma, buloq, selga, quduq, ariq va zovurlar joylashgan. Bandixonsoy, Azlarsoy, Sanamsoy, Oqsoy, Og`zikengsoy, Kichiksoy, Davlatsoy, Ko`ganlisoy, Sho`rchasoy, Kiyiklisoy, Toshboysoy, Dadarsoy va Amuzang kanali, Tangimush kanali, Oqqapchig`ay kanali, Kakaydi kanali, Sherobod kanali, Sizot kanali, Bobotog` kanali, Narpay kanali kabilarni bunga misol keltirish mumkin. Shulardan Oqqapchig`ay, Sherobod kanali tumanning asosiy kanallaridan biri hisoblanadi.

Toponimiyada oq so`zining ma`nolari ko`p: oqmoq fe`lining o`zagi; qor bilan qoplangan baland, yuksak tog`; qo`r suvlari bilan to`yingan daryo; suvi qurimaydigan bo`tana bo`lib oqadigan suv. Qapchig`ay - Asos bo`lgan so`z turkiy va mo`g`ul tillariga oid umumiy leksemdir. mo`g`ul, buryat qozoq, qirg`iz tillarida qapchag`ay – qoya, balandlik; dara, tog` tizmasi orasidagi suv oqadigan chuqur joy. Oqqapchig`ay – suvi qurimaydigan, yozda bo`tana bo`lib oqadigan kanal. Sherobod kanali Janubiy Surxon suv omborining o`ng qirg`ogida qurilgan bosh suv inshootidan suv oluvchi kanal hisoblanadi. 1966 yilda qurilgan. Viloyatning Sherobod cho`llariga suv uzatgani tufayli tuman nomi bilan atalgan. Sherobod tumanidagi yangi o`zlashtirilgan yerlarni sug`orishga xizmat qiladigan magistral kanaldir. Tuman nomi gidronim sifatida ishlatilgan.

Azlarsoy tuman markazidan o`tuvchi katta soylardan biridir. Azlarsoy soyi Shu yerlik aholining aytishiga qaraganda soy yonida qabriston va kichik tepalik bo`lgan. Birinchi ko`chib kelganlar soy yoniga uy joy qurganlar. Ko`chib kelgan aholi qo`y- qo`zilarning tepalik

yonidan aylanib o'tishgan holatini kuzatishgan. Tepalikka ot haydasa yurmagan. Shundan keyin aholi bu soyda azizlar, avliyolar bo'lgan deb Azizlar soyi < Azlarsoy (mahaliy aholi tilida –iz qo'shimchasining tushib qolgan varianti) deb atashgan. Ushbu toponim ikkita ma'noli qismdan iborat. Azlar+ soy > Azlarsoy. Toponim tarkibidagi Azlar so'zi aslida azizlar so'zining mahaliy tilda qisqartirib aytilishidir. Soy yonida qabriston borligi sababli ham Azlarsoy (Azizlar soyi) nomini olgan. **Oqsoy** – Ikki tomoni cho'ziq yassi balandlik o'rtasidagi soylikdan oqadigan, suvi qurimaydigan, tog' boshidan boshlanadigan kichik suv o'zani va shu suv bo'yida tashkil bo'lgan qishloq. Gidronim hisoblanadi. Ikki ma'noli qismdan iborat : Oq+soy. Odatda Orta Osiyo toponimiyasida Oqsoy, Oqdaryo singari daryolar baland tog'lardan boshlanadigan, erigan qor va muz suvlari bilan to'yinadigan, yozda qurimaydigan, oqish, bo'tana rangdagi daryolarga nisbatan ishlatiladi. Oq o'zagi soy yoki kanal ma'nosida ishlatilganda uning suvi doimiy bo'lishiga ishoradir. Suvi qurimaydigan soy yonidagi qishloq. **Bandixon soy** – Forscha – Band+I +xon - Xon bandi ya'ni x on tomonidan qurilgan suv to'g'oni. Ushbu toponim ikkita ma'noli qismdan iboratdir. Xon so'zi o'zbek tilida ma'lum hududning hokimi. Eroniy tillarda xon- karvonsaroy, yag'nob va o'rta asr fors tilida xan-kanal, ariq degan ma'noni anglatgan. Bandixon – eroniy tillarga mansub. Dastlab gidronim suv to'planadigan va ayriladigan joy nomi bo'lgan band, xon so'zlari bir xil ma'noga ega : suv to'planadigan joy, band, to'g'on. Band - to'g'on, damba so'zlari bilan sinonim sifatida hozir ham qo'llanadi. hukumat tomonidan qilingan suv to'g'oni atrofida tashkil bo'lgan qishloq. Surxondaryo viloyatining bir tumani, Denov tumanidagi qishloq ham Bandixon nomi bilan ataladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Qorayev, "Toponimika"
2. M.Qoshg'ariy, "Devon ul-lug'atit turk"
3. S.Tursunov, Q.Eshboyev, "Qumqo'rg'on tarixidan lavhalar" 2019